



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Uluslararası Türk Kültür Teşkilatından, (TÜRKSOY) Türk Birliğindeen, Özbekistan'da Haydar Aliyev Kültür Merkezinden, Ortak Türk Dilinden, Uluslararası Türk Akademisi'nden, Türk Dünyasının Kültür Başkenti Şuşa'dan, 30 yıl işgal sonrasında kardeş Özbekistan Cumhuriyeti'nin iradesiyle Azərbaycan'ın Fuzuli şəhərində dünyaca ünlü matematikçi və astronom, Emir Teymur'un torunu Mirza Uluğ Bey'in adını taşıyan 1 No'lu ortaokulun inşasından, ANAS Gence Şubesi'nin Nizami Gencevi Merkezindəki Alishir Navai Merkezindən söz ediyorsak, tüm bunlar elbette Ulu Nizamin'in eseridir və Navain'in en büyük duaları, dilekleri ve idealleri vardı.

Ədəbiyyat

1. Həbibbəyli İ. "Azərbaycan Nəvəişünaslığının yeni səhifəsi", Məqalə. Almaz Ülvinin "Əlişir Nəvəinin əsri və nəsr" monoqrafiya, ön söz., Bakı, "Elm və təhsil" 2020.
2. Hüseynov R. "Nizami Gəncəvinin ötürücülük və qovuşduruculuq missiyası", "Yeni Azərbaycan", Bakı, 25 fevral 2021.
3. Muxtarov Ə. "Nizami Gəncəvi obrazı bədii ədəbiyyatda", Gəncə, "Elm" 2021.
4. Muxtarov Ə. "Türk birliyinin Azərbaycan- Özbəkistan qaynaqları", məqalə. "Xalq" qəzeti, 30 sentyabr 2023.
5. Rəsulzadə M.Ə. "Azərbaycan şairi Nizami", "Azərnəşr", Bakı, 1991. S-79-80].
6. Sirojiddinov S. "Ozarbayjon adabiyotshunoslik ilmining buyuk namoyandasi – Hamid Arasli haqida". Akademik Həmid Araslinın 115 illiyinə həsr edilmiş respublika elmi-praktik konfransının materialları. Gəncə, Elm nəşriyyatı, 2024.
7. Yusifli X. "Nəvai Nizami haqqında" "Türk dünyasının Azərbaycan-Özbəkistan modeli" mövzusunda beynəlxalq elmi-praktiki konfransın materialları, Gəncə, "Elm", 2024.

ALISHER NAVOIY FENOMENI YOXUD NAVOIY İJODINING OLAMSHUMUL AHAMIYATI

Roviyajon Abdullayeva

*filologiya fanlari doktori (DSc), O'zDJTU professori, faxriy akademik
roviyajon 47@ mail.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/IMWU1581*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fikr uzoq yillar G'arbiy Yevropada o'zbek (turkiylar) ning betakror shoiri sifatida tan olinmagan, unga faqat davlat arbobi, Husayn Boyqaroning do'sti, o'ng qo'l vaziri deb, she'rlarini davlat ishlari orasida ko'ngilxushlik uchun bitilgan mashqlar deb qaralgan, bugun esa ijodiyoti olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan, nemis oriyentalistlari tomonidan e'tibor qilinib, "Hirotning baxti", "Hirotni boshiga qo'ngan baxt qushi" (Xofman) deya e'zozlanib, e'tirof etilayotgan Mir Alisher Navoiyning original ijodkorligi, uning fenomeni haqida boradi.*

Kalit so'zlar: *filooreantalizm, reformator, konsepsiya, oriyentalist, turkologiya, fenomenal ijodkor, noyob hodisa, adabiy meros, badiiy san'at, qo'lyozma.*

THE PHENOMENON OF ALISHER NAVAIY, OR THE GLOBAL SIGNIFICANCE OF NAVAIY'S CREATION

Abstract: *This article examines the originality and literary phenomenon of Mir Alisher Navoi, whose recognition in Western Europe as a distinguished Uzbek (Turkic) poet was historically overshadowed by his political role as a statesman, advisor to Huseyn Bayqaro, and*

high-ranking minister. For many years, his poetry was regarded merely as a secondary pursuit, composed for leisure amid his governmental responsibilities. However, contemporary scholarship acknowledges the global significance of his literary contributions. Notably, German Orientalists now revere Navoi, referring to him as "the happiness of Herat" and "the bird of happiness that landed on the head of Herat" (Hoffmann), underscoring his enduring cultural and intellectual legacy.

Keywords: *philo-orientalism, reformer, concept, oriyentalist, Turkology, phenomenal creator, unique phenomenon, literary heritage, fine art, manuscript.*

Alisher Navoyi ijodining olamshumul ahamiyati haqida gapirishdan oldin **"fenomen"** terminiga izoh berib o'tsak. **"Fenomen"**ga lug'atlarda 1. "idealistik filosofiyada - go'yo faqat ongda bor bo'lgan va obyektiv borliqni aks ettirmaydigan subyektiv hodisa; 2. (ko'chma), kamdan-kam uchraydigan, noyob hodisa [17, 921], Keyingi manbada: 1. favqulodda (kamdan-kam uchraydigan) hodisa; favqulodda qobiliyat yoki talant (iqtidor) egasi; 2. filos. his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha. Bu so'z asosida "fenomenalizm, fenomenalist, fenomenalnost, fenomenal" singari falsafiy so'zlar yasalgan [17, 665], deb izoh berilgan.

Demak, **"fenomen"** - ... noyob hodisa, favqulodda qobiliyat egasi ekan, unga kimlar daxldor yoki kimlarni fenomen deyishimiz mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Forob (873-y.)da tug'ilib, Damashq [14, 146-150] (950-y.)da vafot etgan, yetmish (70) tilni bilgan Abu Nasr Muhammad Uslug' Tarxon **Forobiy** - fenomendir. Forsiydan eski o'zbek tili (chig'atoycha)ga o'tib, ona tilini adabiy til darajasiga ko'targan **"shams ul-millat"**imiz **Alisher Navoyi** (1441 - 1501) so'zsiz fenomen. Butun dunyoda lyuteranlik mazhabiga asos solgan, nemis protestantizmining asoschisi, Germaniyadagi byurger reformatsiyasining arbobi, Yevropadagi buyuk islohotchi, **Bibliya - Injilni** lotin tilidan o'z ona tili - nemis tiliga, xalq tilida tushunarli qilib o'giran tarjimon, Navoiyga o'xshab nemis tilini lotin tili iskanjasidan qutqarib, adabiy til qilgan, **nemislarning Navoiysi, Martin Lyuter** (1483-1546) [14, 460] ham fenomen. Har qanday tahdid va xatarlarga qaramasdan, tinchlikni saqlab, jang-u jadallarsiz, jonini Jabborga berib, jamiyatni bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchi bir tarixiy bosqichga jang-u jadallarsiz, qurbonlarsiz olib o'tgan birinchi Prezidentimiz **Islom Abdug'aniyevich Karimov** (1938-2016) ham fenomendir. Shuningdek, ilmiy-ijodiy faoliyati serqirra, 11 tilda gapiradigan va ilmiy fikrlaydigan, xalqaro konferensiyalarda turli tillarda ma'ruzalar bilan faol ishtirok etib kelayotgan jahongashta doktor, professor **Ingeborg Baldauf - Taalxammerxonim** (1956) ham **fenomen**. Bu ro'yxatni istalgancha davom qildirish mumkin. Ammo maqsad bu emas. Maqsad o'z davrida **"manzuri shahanshoi Xuroson"** (Fuzuliy) deya e'tirof etilgan Navoyi ijodiyoti haqidagi G'arb oriyentalistlarining g'ayri ilmiy qarashlarini, uning fenomenal qirrasini hayotiy-ilmiy va tarixiy faktlar bilan yoritishga harakat qilish, shu bilan birga uning jahon tamaddunida tutgan o'rnini belgilashdan iboratdir.

Betakror shoirimiz ayni paytda sayyoramizning eng kuchli shoirlari qatorida e'tirofga loyiq ko'rilayotgan bo'lsa-da, afsuski, eski Germaniyada, Y.V.Gyote zamonlarida keng e'tirof etilmadi, uning badiiy ijodidan jahon she'rshunoslari to'liq bahramand bo'lmadi. Zero, G'arbiy Yevropa sharqshunoslari Alisher Navoyi ijodiyoti bilan jiddiy va chuqur shug'ullanmasdan, uni Dehlaviy, Nizomiy va Jomiylarning "tarjimoni, taqlidchisi", ulardan nusxa olgan "ko'chirmachi", yana "saroy shoiri" degan

asossiz g'ayriilmiy qarashlarni olg'a surdilar. Ilmiy isbotlanmagan bu xulosa fikrlar sharqshunos F.Belen, va H. Purgstallar tomonidan muomalaga kiritilib, bu jarayon G'arbiy Yevropa mamlakatlarida uzoq yillar davom etgan edi. Navoyining adabiy merosi umumbashariy g'oyalarni ilgari surgan, o'zbek she'riyatining mustahkam qasrini yaratgan so'z san'atkori sifatida tan olinmadi. Buning asosiy sabablaridan biri, aksariyat G'arb oriyentalistlari turkiy tillardan, xususan, eski o'zbek tilidan yaxshi xabardor emas edilar, ikkinchidan, ular Navoyi ijodiga ruhan yaqinlasha ololmaganlar, u davrlarda Yevropada Navoyi ruhiy olamiga kira oladigan, klassik lirikani, irfoniy g'azallarni sevadigan, romantikaga boy, kitobiy ilmlardan-da yuksakroqda turadigan orifona, shoirona qalbning tanqisligidir.

Navoyiga g'arbliklar birinchi navbatda Sulton Husayn Boyqaroning yoshlikdagi sodiq do'sti, o'ng qo'l vaziri, mamlakatini obod etgan davlat arbobi deb qaradilar, bisotidagi ash'orlarini esa davlat boshqaruvi orasida ko'ngilxushlik uchun yozilgan bitiklar, mashqlar deb bildilar. Shu boisdan ham, xorij sharqshunosligida uni ijodiy faoliyatiga obyektiv baho berish, uni o'rganish konsepsiyasi, tarjima tarixi, interpretatsiyasi, tadrijiy rivojini kuzatish nisbatan kech, ya'ni aniqrog'i, Germaniya adabiyotshunosligida turkologiya oriyentalistikadan ajralib, alohida yo'nalish bo'lib chiqqach, taxminan XX asrlardan boshlangan edi.

Bugun Germaniyada "navoyishunoslik" alohida yo'nalish sifatida shakllanayotgani ko'zga tashlanadi. *Barbara Kellner – Xaynkele, Yurgen Paul, "Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori" Klaus Sho'ning, Erika Taube, Mark Kirhner, Zigrid Klaynmihel* (1938-2024), *Yoahim Girlihs* kabi nemis professor turkolog, oriyentalistlari [B.K.Heinkele. 2003, 1-13; J.Paul, 15-36; C.Schöning. 37-45; E.Taube, 47-58; M.Kirchner. 85-96; S.Kleinmichel. 97-118; Joachim Gierlichs. 119-131] va o'zbek g'arbshunoslari tomonidan masalaning u yoki bu qirralari yoritilgan ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlarning aksariyati mazkur masalani o'rganish tadrijiga doir xronologik obzor bo'lib, ular Navoyi ijodining G'arbiy Yevropaga kirib borish evolyutsiyasi haqida tasavvur paydo qilish bilan birga, tarixiy faktik ma'lumotlar ham beradi. Ilmiy-ommaviy maqolalarda lingvopoetik tahlillarni kuzatish mumkin.Chunonchi, X.Vessel Buyugimizning 20 dan ortiq tilga o'girilgan:

Olam ahli bilingizkim, ish ermas dushmanlig',

Yor o'ling bir-biringizgakim, erur yorlig' ish

mashhur satrlariga e'tibor qaratgani, bu bayt X. Vessel nazdida jahonaro do'stlikning ruhiy chaqirig'i bo'lib yangragani, Buyuk Britaniyadagi Geologiya instituti rahbarlari buyrug'i va boshqaruvi ostida butun O'rta Osiyoni sayyoh sifatida kezib chiqqan mojar sharqshunosi H.Vamberi (1832-1913), fransuz P. do' Kurteyl, ingliz Ch. Ryoning sa'y-harakatlari tufayli xorijda navoyishunoslik yo'nalishi vujudga kelgani ta'kidlangan.

Shuningdek, bugun adabiy jarayonda qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik aspektida Navoyi ijodiga bag'ishlangan dissertatsiya, monografiya, risola hamda ilmiy-ommabop xarakterda maqolalar paydo bo'lganini alohida ta'kidlash joiz. Ilmiy-nazariy va amaliy manbalar ichida professor Umirbek Sotimovning "Mushtaraklik" (asrlar osha Hofiz - Navoyi - Gyote mushoirasi) tadqiqoti, "Inkordan iqroorgacha"(1994), "Navoi i Zapad" (1996) kabi risola va ilmiy - tanqidiy monografiyasi, shu yo'nalishdagi qator maqolalarida Yevropa sharqshunoslarining Navoyini anglash yo'lidagi urinishlari, kamchilik va muvaffaqiyatlari, shoir adabiy

merosining **“inkoridan iqrorigacha”** bo‘lgan davr, bahs munozaralarga boy adabiy jarayon ishonchli faktik materiallar va tarixiy manbalar bilan yoritishga harakat qilingan.

D.G‘ulomovanning ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir ijodiyoti haqidagi dissertatsiyasi bilan birga, manbalarga boy **“Navoyi va Shekspir”**, professor Suvon Melining **“Dante va Navoyi: Yuksak fazolarda uchrashuv”** maqolalarida fikr mushtarak nuqtalarga qaratilgan bo‘lsa, Akmal Abdullajonovning **“Navoyi badiiyatini nemischa tarjimalarda qayta yaratish va tabdil etish”** nomli nomzodlik dissertatsiyasida **“Navoyi adabiy merosining Germaniyaga tarqalish tarixi, masnaviy tarjimasida peyzaj, tarjimada mazmun va shakl birligi, Navoyining iqrori **“Munojot”**ning xosliklari, hikmatli so‘zlar tarjimasi”** kabi masalalarni yoritish maqsad qilib qo‘yilgan. Asarlar ilmiy-metodik jihatdan qiyosiy aspektda lingvopoetik tahlil qilingan. **“Munojot”** va g‘azallar misolida badiiy san‘atlar tarjimasining xosligi, tabdilda janr bosh masala ekani isbotlashga urinilgan. Tarjima jarayonida ba‘zi o‘rinlarda badiiy san‘atlar tiklanmay qolgani, natijada asliyat mazmuni nemis o‘quvchisiga yetmagani, radif o‘rniga boshqa san‘atlar yaratilgani, asliyatda bu san‘atlar mavjud emasligi kabi masalalarga e‘tibor qaratilib, tahlil qilingan. Tadqiqot **“milliy adabiyot tarixi”** mutaxassisligi bo‘yicha himoya qilingan bo‘lsa-da, maqsad tarjimani qiyosiy aspektda tahlil qilish bo‘lgan. Biroq, tadqiqotchining **“Masnaviy tarjimasida peyzaj”** faslidagi: **“Navoyi peyzaj yaratishning buyuk ustasi. “Farhod va Shirin”ning Alfred Kurella tarjima qilgan XVII bobi go‘zal manzaralari shoirning peyzaj yaratish san‘atkorligini yorqin namoyon etadi. Tarjima uchun ...shu bobning tanlab olinishi bekorga emas... shu tabiat tasviri Alfred Kurellani maftun qilgan”**, degan fikrlariga qo‘shilish qiyin. Shoir asarlarida maftunkor tabiat manzaralari tasviriga e‘tibor qaratganiga shubha yo‘q. Haqiqatan ham, Navoyi peyzaj yaratishning buyuk ustasi. O‘zbek adabiyotshunosligida Navoyi ijodi misolida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqinlarini tadqiq etishga bag‘ishlab yozilgan maqolalar, monografiyalar serob. Jumladan, A.S.Erkinovning **“Peyzaj yaratishda Alisher Navoiy mahorati”** nomli dissertatsiyasi avtorefratini, Navoyi ijodining axloqiy va falsafiy-estetik mohiyatini yorituvchi, badiiy mahorat qirralarini ochishda xos sahifa bo‘ladigan F. Sh. Nabiyevning **“Priroda i poetika Alishera Navoi”** monografiyasini eslash o‘rinlidir. Tadqiqotchining fikricha, tabiat tasviri shoirning **„Farhod va Shirin”** dostonidagina emas, balki uning barcha asarlarida, nafaqat tabiat go‘zalligini tasvirlashdagi mahorati, so‘z san‘atkorligi, musiqani, so‘zni, rang tasvir ustasi musavvir iqtidorini bir nuqtaga jamlab, uning kompozitsiyasini, tasvirini uyg‘unlashtira olgan qomusiy ijodkorligi sezilib turadi... Ammo, **“... Navoiy tabiat go‘zalliklari orasida asosiy ideyani yo‘qotib qo‘ymagan, unda har vaqt yetaklovchi tamoyil aniq ko‘rinib turgan”**, deyilgan **“Xamsa talqinlari”** asarida.

Ko‘pgina nemis adib va shoirlari qatori umrining katta bir qismini (1934-1954) sobiq Ittifoqda o‘tkazgan, Navoyining **“Farhod va Shirin”** dostonidan parcha tarjima qilgan, nemis tanqidchisi, tadqiqotchi va tarjimoni, Nemis san‘at akademiyasining akademigi Alfred Kurella (1895-1975)ning maqsadi **“Farhod va Shirin”** dostonidan parcha tarjima qilish emas, Navoyining g‘azallari bilan birgalikda dostonni to‘liq o‘girish bo‘lgan. Ammo niyatini amalga oshirishga, 1933-yili Germaniyadagi yirik monopolist va harbiylar ko‘magida rayxskansler bo‘lib olgan Adolf Hitler (1889-1945)ning, maxsus qurolli hujum guruhlari (**“SA”**) va soqchi, qo‘riqchi guruhlari (**“SS”**) tuzib, butun dunyoni zabt etish maqsadida boshlagan dahshatli Ikkinchi jahon

urushi (1940 – 1945) xalaqit bergan. Shu zaylda, uning Toshkentda akademik shoir Gʻafur Gʻulom bilan hamkorlikda Navoyidan tarjimalar borasida boshlagan ishlari tugallanmay, chala qolib ketgan edi. Alfred Kurellaning tarjimaga *“Farhod va Shirin”* dostonini tanlashiga kelsak, A.Abdullajonovning fikriga qarshi boʻlganimiz holda, uni tabiat goʻzalligidan koʻra, dostonning bosh qahramoni Farhodning mardligi, jasorati, komil insonligi maftun etgan boʻlishi, aniq.

Navoyini buyuk oʻzbek soʻz sanʼatkori, fenomenal ijodkorligini Toshkentga Navoyining 500 yillik yubileyga tashrifi chogʻida anglab yetgan Alfred Kurella ham yuqorida nomlari tilga olingan ijodkorlar taʼsirida, shoirning shaxsi, davlat arbobilik faoliyati va koʻp qirrali original ijodkorligiga bagʻishlangan ***“die Wiederentdeckung des grossen Dichters - Buyuk shoirning qayta kashf etilishi”*** [4] esse xarakteridagi ilmiy tadqiqotini yaratgan edi.

Sharq sheʼriyatidagi jozibali inju tashbehlar, oʻziga xos sirli va sehrlilik, oʻtkir falsafiy mushohada, gʻoya, obrazlar silsilasi qadim-qadimdan Yevropa donishmandlari-yu, mutafakkirlarini, shoir-u shuarolarining diqqatini oʻziga ohanrabo yangligʻ tortgan. *“Sharqning koʻplab maʼnaviy boyliklari ardoqlanib,... tilimizga kirib kelayotgan bir davrda, biz ming yillar mobaynida shunchalar koʻp buyuk goʻzallik va ezgulikni bergan va bundan keyin ham berishi mumkin boʻlgan Sharqqa diqqatimizni jalb etsak arziydi”*, degan edi Gyote Sharq bulbuli Hofiz ijodidan taʼsirlanib yozgan *“Gʻarb-u Sharq devoni”*da. Gyotening doʻsti, shaxsiy kotibi Y.P.Ekkerman oʻzining *“Sharq haqida Gyote xotiralari”* kitobida Gyotening *“Biz oʻzimiz Sharqqa intilmogʻimiz lozim, aks holda Sharq hech qachon bizning qoshimizga kelmaydi”*, degan fikrlarini eslatib oʻtgan. Fransuz Sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri **Gustav Dugat** ham ***“Orientalisme Vende classique”*** qoʻllanmasida, gumanitar fanlar rivojida ...Antik durdonalarni hal qilish uchun faqat grek va lotin ilmi yetarli emasligini isbotlab, Sharqni oʻrganishga chaqirgan [22, 36-40].

Alisher Navoyi ijodiyotining ilk bor *“Eski Germaniya”* (H.Hayne)ga tarqalish tarixi 1583-yilda *“Sabʼai sayyor”* dostonining Bazelda nemis tilida chop etilgani bilan boshlanadi. Betakror shoirimiz ijodi bilan shugʻullangan sharqshunos Y.E.Bertelsning fikricha, *“Sabʼai sayyor”* dostonini ilk dafʼa nemis tiliga italyanchadan Yohann Vetsel oʻgʻirgan. Italyanchaga esa forschadan agʻdarilgan ekan. Ammo Yohann Vetselgacha *Xristofor Tabriziyning “Sarandip* [N.B.Rabgʻuziyda *“Sarandip”* – bu *“Seylon”* deb koʻrsatilgan] *shohining uch oʻgʻli va ularning ajoyib sarguzashtlari”* asarining ikkinchi qismida *“Sabʼai sayyor”* dostonidagi *“Bahrom va Dilorom* qissasi syujetidan foydalangani ham maʼlum. Keyinchalik bu asar *nemis, fransuz, golland* tillarida nashr etilgan [*Tabriziy X., Sarandip shohining 3 oʻgʻli va ularning sarguzashtlari. – Venesiya. 1557; Oʻsha asar. – Bazel. 1583; – Laypsih. 1630; 1723.*]. Asarning ikkinchi qismi oʻtgan asrning 20-yillarida Germaniya adabiy muhitiga kirib borgan va uni *Tomas Benfey* nemischalashtirgan. Oldingi nemischa tarjimalarda faqat birinchi qism, yaʼni Xusrav Dehlaviyning *“Xamsa”* sini oʻz ichiga olgan. *“Sayyor syujet”* dan foydalanib yaratilgan mazkur asar haqida *“Rus sharqshunosligida Navoiy ijodi masalalari”* sarlavhali maqolada ham aytib oʻtilgan. Hatto, ilm olamida Xristofor Tabriziy *“Xamsa”* (Navoiy) bilan tanish boʻlgan degan taxminlar ham yoʻq emas [23, 215-225]. Shundan soʻng, Navoyi adabiy merosi turli davrlarda *nemis, ingliz, fransuz, chex, venger, polyak, rumin, ispan, serb, fors, rus, turk* singari turli tillarda paydo boʻla boshladi va yillar davomida qayta-qayta nashrdan chiqib, *“gʻazal sultoni”* ning biobibliografiyasi kengaya bordi. Jahon adabiy jarayonida bu qutlugʻ adabiy merosga

G'arbiy Yevropaning taniqli sharqshunos va turkiyshunoslari fikr bildirgan, ilmiy-nazariy, amaliy aspektda tadqiqotlar, dissertatsiya, monografiya, risola va ilmiy-publitsistik xarakterda qator maqolalar yuzaga kelgan.

Alisher Navoyi devonlari hali o'zi tirikligi chog'laridayoq jahonning turli taraflariga choparlar orqali jo'natilgani ma'lum. O'z davrining shon - shuhratda tengsiz hukmdorlari ham Amir Alisherbek qalamiga mansub devon, qo'lyozmalarni xos kutubxonalarda asrab-avaylaganlar, hikmat-u latif kalomlaridan bahramand bo'lganlar. Navoyi adabiy-ilmiy merosining G'arbiy Yevropaga tarqalishi, targ'ib qilinishining bosh sababi, 1519-yilda Lo'venda Sharq olamiga qiziquvchi oriyentalistlarning paydo bo'lishi va 1530-yilda ular say'-harakatlari tufayli **"Uch tillik institut"** ning tashkil topishidir [Zur Geschichte des Türkisch - Lernens in den deutschsprachigen Ländern. Feldkirchenstrasse 21.- Bamberg. 1987.]. Bu faktlar Navoyi ijodi nemislarga XVI asrdayoq tanish bo'lgan, degan fikrimizni quvvatlaydi. Nemis - o'zbek adabiy aloqalarining ilmiy asoslari, rivojlanish evolyutsiyasi, tarjimachiligi, G'arb navoiyshunosligining tarixiy ildizlari ham o'sha asrlarga borib bog'lanarkan. Ammo *Farbu-Sharq* adabiy-madaniy aloqalarining tarixiy ildizi, bundan-da chuqurroqdir. Bu o'tmish ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi bosqinchilik va ko'chmanchilik davri voqealariga borib taqaladi. Shu o'rinda, bir qadimiy-tarixiy voqeani eslash joiz ko'rinadi. Aslida, bu VII asrlarda arablarning G'arb tomon yurishlari, Ispaniyagacha kelib, u yerda bir necha asr hukmronlik qilib, o'zlarining milliy-maishiy hayot tarzi va madaniyatlarini yerli xalqqa singdirishga harakat qilganlari, bu bosqinchilik harakati asrlardan-asrlarga o'tib, uzoq davom etgani o'tmish ilmiy manbalaridan yaxshi bilamiz. Yuqoridagi tarixiy faktlardan kelib chiqqan holda, G'arb-u Sharq adabiy-madaniy va ma'rifiy aloqalari masalasining tarixiy ildizi ham shu asrlarga borib taqaladi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Bartoleme do' Yerbelo Molenvilning fransuz tilidagi Sharq kutubxonasi" (1697) kitobida Alisher Navoyi haqida ikkita maqola keltirilgan. 99 sahifadagi "Alisher" sarlavhali birinchi maqolada Navoyiga quyidagicha ta'rif berilgan. Ya'ni, *"Uni Alisher yoki Miralisher Navoiy deb atashadi. Bu nom "Ali" va "Sher" so'zlaridan tashkil topgan. Alisher Xurosonda vazir bo'lib, shuhrat qozongan. U yirik olim va shirinsuxan shaxs bo'lgan, Hirotda ...boy kutubxona yaratgan"* desa, ikkinchi "Navoiy" (661 b) maqolasida *"Navoiy - Nizomiddin Mir Alisherning taxallusidir, temuriylar avlodidan bo'lgan bu shahzoda... Sulton Husaynning vaziri edi. U turkiy va forsiyda g'azallar bitgan, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy", "Sab'ai sayyor" dostonlari bor, to'rtta devon yozib qoldirgan. Ular "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" bo'lib, bolalarga, o'smirlarga, o'rta yoshdagilar, keksalarga atalgandir. Navoiy 906 yoki 912-yilda vafot etgan. .. Bartoleme do' Yerbeloda "Xamsa"dagi "Hayrat ul-abror" dostoni tushib qolgan, "Xazoyin - ul maoniy" asari noto'g'ri talqin etilgan. Shoir vafoti sanasi ham noto'g'ri. Ushbu kamchiliklardan qat'iy nazar, Bartoleme do' Yerbeloning qomusidagi maqolalar Navoiy ijodi bilan farang jamoatchiligini ilk dafa tanishtirgan manba sifatida qimmatlidir"*, deyilgan, "Alisher Navoiyning farangistonlik muxlislari" maqolasida.

Bundan chamasi 300 yillar muqaddam Yevropa adabiy-madaniy doiralarida **filooreantalizmga**, ya'ni, Sharqqa diqqat-e'tiborni qaratish, sharqiy o'lkalarni har tomonlama atroflicha izchil o'rganish g'oyalariga moyillik kuchaygan bir davr bo'lgan. Bu tendensiya G'arbiy Yevropa mamlakatlarida uzoq yillar davom etadi. Ma'lumki, Parij XVIII asr oxirlarida G'arb sharqshunosligining yagona markazlaridan

biriga aylanadi. 1795-yilga kelganda **Silvestre do' Sasi** (1758-1838) tashabbusi bilan **"Sharq jonli tillari maktabi"** ochiladi [Xolbekov 1991. 91]. Germaniyada fors-tojik va arab zamonli Sharq ijodkorlarining adabiy meroslarini o'rganish, tadqiq va tarjima qilish ishlari urf bo'la boradi.

Farblikarni Kun chiqar mamlakatlari madaniyati, adabiyoti, Navoyi davri ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan tanishtirganlardan biri oriyentalist *Hammer Purgshtal* (1774-1856)dir. Bu haqida Myunhen universiteti professori *Roland Piychning "Xammer-Purgshtall va uning Navoiyga oid bitiklari"* tadqiqoti ishonchli fakt va ma'lumotlar beradi [Roland Piych. Xorijiy filologiya. 2004. 1(10), 50-52.]. Vena Sharqshunoslik akademiyasida ta'lim olgan **Hammer Purgshtall**, 1804 -yilda **"Sharq ilmlarining qomusiy sharhi"** asarini nashr ettiradi, 1806-yilda **"Shirin"** she'riy asarini yaratgan. U Vena Fanlar akademiyasi prezidenti paytida ham Sharqni kuzatish borasidagi ilmiy-ijodiy faoliyatini bir lahza susaytirmagan.

Roland Piychning **"Hammer Purgshtall va uning Navoiyga oid bitiklari"** tadqiqotida keltirilgan **"Chig'atoy sultonlari"** atamasi mantiqan qaraganda haqiqatdan yiroq, chunki tarixdan ma'lumki, 1370-yilda Movarounnahr amiri deb e'lon qilingan Amir Temur hayotligidayoq, Xurosonni o'z ichiga olgan Markazlashgan davlat barpo etgan davrdan boshlab bu buyuk davlatni boshqarish temuriy Sultonlar ixtiyoriga o'tgan. *Ikkinchidan*, muallif **"Alisherning otasi Bahodirning o'g'li"** deganda, Alisherbekning otasi G'iyosiddin Muhammadning, el orasida **"Kichkina baxshi"**, **"G'iyosiddin Kichkina"** nomlariga emas, xalq orasida mashhur bo'lgan **"Bahodir, Kichkina Bahodir"** singari laqablariga ko'proq urg'u bergan.

Hammer Purgshtal (1774-1856), Y.G.Herder, Y.V.Gyote (1749-1832), Sharq adiblari ta'sirida g'azal yozishni mashq qilgan F. Ryukkert, ilmiy-ijodiy faoliyatini nemis tilida yuritgan, Navoyining bir qancha asarlarini o'zi bilan birga Vengriya (Mojariston) ga olib ketgan Herman Vamberi singari nemis, mojar olim, yozuvchi, shoirlari matbuotda bir ovozdan **"nigohimizni Sharqqa qaratmog'imiz kerak, Sharqlashmog'imiz kerak!"** degan shiorlar bilan chiqqan edilar.

Eslaganimizday, XVIII - XIX asrlarga kelganda, G'arbiy Yevropada **filooreantalizm** ayni kuchaygan bir paytda, G'arb adabiy-madaniy doiralarning sa'yi-harakatlari bilan Sharqning yetti buyuk allomasi: **Firdavsiy, Anvoriy, Nizomiy, Rumiy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy** singari forsiyzabon shoirlar ijodi G'arbiy Yevropaga kirib kelgani ma'lum. Biroq bu safda **Alisher Navoiy** nomining uchramasligi achinarli. Buning o'ziga yarasha sabablari bor.

Ammo, *Bartoleme do' Yerbelo Molenvilning fransuz tilidagi Sharq kutubxonasi* (1697) kitobida shoir haqida ikkita maqola berilgan.

99 sahifadagi "Alisher" sarlavhali birinchi maqolada Navoyiga quyidagicha ta'rif berilgan. *"Uni Alisher yoki Miralisher Navoiy deb atashadi. Bu nom "Ali" va "Sher" so'zlaridan tashkil topgan. Alisher Xurosonda vazir bo'lib, shuhrat qozongan. U yirik olim va shirinsuxan shaxs bo'lgan, Hirotida ...boy kutubxona yaratgan"* desa, ikkinchi "Navoiy" (661 b) maqolasida *"Navoiy - Nizomiddin Mir Alisherning taxallusidir, temuriylar avlodidan bo'lgan bu shahzoda... Sulton Husaynning vaziri edi. U turkiy va forsiyda g'azallar bitgan, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy", "Sab'ai sayyor" dostonlari bor, to'rtta devon yozib qoldirgan. Ular "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" bo'lib, bolalarga, o'smirlarga, o'rta yoshdagilar, keksalarga atalgandir. Navoiy 906 yoki 912-yilda vafot etgan. .. Bartoleme do' Yerbeloda "Xamsa"dagi "Hayratul - abror" dostoni tushib*

qolgan, "Xazoyin ul-maoniy" asari noto'g'ri talqin etilgan. Shoir vafoti sanasi ham noto'g'ri. Ushbu kamchiliklardan qat'iy nazar Bartoleme do' Yerbeloning qomusidagi maqolalar Navoiy ijodi bilan farang jamoatchiligini ilk dafa tanishtirgan manba sifatida qimmatlidir", deyilgan, "Alisher Navoiyning farangistonlik muxlislari" maqolasida.

Professor Abdizuhur Abduazizovning "Navoiy merosining xalqaro ahamiyati", "Jahon Aro buyuklik" haqidagi izlanishlarida bir-biriga zid fikrlar uchragani bilan keltirilgan faktik materiallar muhimdir. Biroq Navoiy ijodi g'arbiy va sharqiy tillarga qay darajada tarjima qilingan va o'rganilgan? Maqolalarda professorning Yevropa sharqshunoslari faoliyatlarini bir yoqlama o'rgangani, jahon adabiy jarayoni, tanqidchiligi, g'arbshunoslarning keyingi yillar fikr-mulohazalaridan bexabarligi seziladi.

O'sha davrlar adabiy jarayonida "G'arb sharqshunoslari Navoiy ijodi bilan chuqur shug'ullanmasdan, unga tuhmat qilib, uni taqlidchiga chiqarib qo'ydilar. **"Navoiy - tarjimon", "Navoiy Xisrav Dehlaviy, Nizomiy va Jomiylarning tarjimonidir", "Navoiy taqlidchi"** degan g'ayri ilmiy da'volarni olg'a surdilar [Otajonov, 1988. 2: 63-65]. Hatto o'tgan asrning 20-yillarida shoirning nasli-nasabini, millatini aniqlashga zo'r berib urinishib, "Alisher Navoiyini "urug'i -nasli ham, tili ham o'zbekcha bo'lmag'on, balki chig'atoy yoki uyg'ur shoiri", "fors shoiri" (A.Sa'diy) deb da'vo qilguvchilar ham bo'lgan...

Xullas, isbot talab qilayotgan bunday bahsli fikrlar G'arb va Sharq adabiy jamoatchiligida uzoq davom etdi. Navoiy ijodiga G'arb oriyentalistlarining qo'l urmaganining bosh sababi shuki, buni birinchi navbatda Navoiy tilining murakkabligi, barcha turli turkiy tillardan (qozoq, qirg'iz, uyg'ur, turk va h.o.-A.R.) so'zlar qo'llashi, Xorazm shevalariga (alim, qopi - A.R.) ham murojaat qilishi bilan izohlash mumkin. Tildagi rang-baranglik holatlari G'arb oriyentalist va turkologlari oldida doim muammo tug'dirgan. Yechimini kutayotgan mazkur muammo sharqshunos va g'arbshunoslarimiz oldida turgan dolzarb masaladir. Biroq keyingi davrlar dunyo navoiyshunosligida Mir Alisher Navoiy dahosini **"Hirob boshiga qo'ngan baxt qushi"** yoxud **"Hirobning baxti"** (Hofmann) deya e'tirof etilayotgani, jahon arenasidagi akademiklar N. I. Konrad, A.Kurella, Lui Aragon (Fransiya), A. N. Kononov (Leningrad) singari oriyentalist, turkolog olim, yozuvchi, shoirlar uni ko'p qirrali original ijodkor sifatida, **"noyob hodisa - fenomen"** deya, tan olib, e'zozlab, ehtirom bilan e'tirof eta boshlaganlari quvonarli holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллажонов А.Навоий бадииятини немисча таржималарда қайта яратиш ва табдил в создании пейзажа (на примере поэмы "Садди Искандари" АКД. 990. – С. 22.
2. Абдуллаева Р. Навоийи ғазаллари таржимасида АНАТИЛнинг ўрни ва роли. Лексикографиянинг замонавий муаммолари (назария, амалиёт ва инновация). Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. –Б. 13-28.
3. Abdullaeva Raviyaxon. Spezifische Schwierigkeiten der adäquaten Übersetzung von Sinnsprüchen Alischer Nawois. Usbekisch-deutsche Studien IV. Kontakte: Sprache, Literatur, Kultur, Didaktik. Münster-Taschkent. Lit. Verlag. Berlin.2016. S.165-183.
4. Alfred Kurella. Die Wiederentdeckung eines großen Dichters. Wofür haben wir gekämpft? Beiträge zur Kultur und Zeitgeschichte. Aufbau-Verlag. – Berlin. -1975.S.265-285.
5. Бартольд В.В. Мир Алишер Навои (инг.т.да). – Кабул. 1968.
6. Brockelmann C. Nawais Biographien türkischer und zeitgenössischer Mystiker.In Documenta islamica. inedita. Akademie Verlag. –Berlin. 1952. (Hrg. J.W. Fück).–S.221-250.

7. Goethe J.W., West-östlicher Divan". Insel Verlag. (achte erweiterte Auflage). 1988. S.9 -124.
8. Vambery H. Caghataische Sprachstudien. – Leipzig, 1867. –S. 173-193.
9. Джўраев А, Салямов Г. "О музе Наваи и переводческая мастерства Л. Пенковского". Мастерство перевода. Советская писатель. – М., 1981.
10. Жалолов Т. Хамса талқинлари. Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти. –Тошкент, 1960. – Б. 19.
11. Маурицо Пистозо. Рукописи с сочинениями Алишера Навои, хранящиеся в библиотеках Италии; А.Навои (тўплам).Фан. – Тошкент.1991. –Б. 45-46.
12. Муҳаммад Собир "А.Навоийнинг "Ҳайратул аброр" маснавийси ҳақида тадқиқотлар". ДД. – Покистон. "Ўзбек тилшунослиги масалалари". – Т. 1973. – Б. 19-20.
13. Набиев Ф.Ш., Природа и поэтика Алишера Навои. Фан. – Тошкент, 2008.
14. ЎзСЭ. 14 томлик, 12 том, ЎзСЭ. Бош редакцияси, – Тошкент, 1979.
15. Роберт Девереук. "Муҳокамат-ул луғатайн"ни шарҳи, қайта таҳрири, инглиз тилида таржима. Лайден нашриёти. 1966.
16. Роланд Пийч. Хорижий филология. – Самарканд. 2004. 1(10)-сон. – Б. 50 -52.
17. Русско-узбекский словарь. В 2-х томах. Том II. ЎзСЭ Бош редакцияси. –Тошкент, 1984.
18. Сотимов У. "Навои и Запад". Фан. – Ташкент, 1996.
19. Сотимов У. "Исследование жизни и творчества Алишера Навои в западно европейском востоковедении". АДД. Институт Мировой литературы. РАН. – Москва.1998.
20. Табризий Х., Сарандип шоҳининг 3 ўғли ва уларнинг ажойиб саргузаштлари (1 қисм Х. Деҳлавийнинг "Ҳашт биҳишт"и (8 жаннат), 2 қисм Навоийнинг "Сабъаи сайёр"и асосида ёзилган). – Венеция, 1557.
21. Холбеков М., Алишер Навоий ижоди Фарангистонда. Таржима муаммолари. – Тошкент, 1991.
22. Кессел Л.М., Гёте и Западно восточный диван. Наука. – М., 1973. – С. 36-40.
23. Исмагуллаев Х. Жаҳонни забт этган шеърят. Шарқ юлдузи. 1968. – Б. 215-225.

ГУМАНИЗМ И КРЕАТИВНОСТЬ В ТВОРЧЕСТВЕ НАВАИ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ НАРОДАМИ ЕВРАЗИИ

Назаров Насриддин Атакулович,

доктор философских наук, профессор Чирчикского Государственного педагогического университета

E-mail: nasrid@mail.ru Узбекистан, Ташкент

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/QLHY4005

Абстракт. В данной статье уделяется внимание развитию культурных процессов в общественной жизни народов Евразии посредством пропаганды гуманистических аспектов в произведениях Алишера Навои. Так как, в условиях нынешней реальности, когда требуется общности и взаимовыручке народов России и Центральной Азии необходимо обратить внимание к феномену Алишера Навои, которой в его произведениях доминантное положение занимают идеи единства, взаимопомощи и развитие культурно-интернациональные традиции. Гуманизм и креативности Алишера Навои исследуется как средство идеологического воздействия в период духовных кризисов в условиях современного развития человечества. Также обсуждается роль наследия нашего деда Алишера Навои в развитии культурных связей, в том числе литературных процессов. В условиях мультикультурного развития выдвигаются идеи о необходимости обеспечения позитивного характера социокультурных связей и использования духовного наследия, в частности, концепции, выдвинутые в творчестве Алишера Навои. В обеспечение гармонии и стабильности в Евразийском континенте

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o'rni	136
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g'azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo'qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta'sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an'analari	193
Islomjon YAQUBOV. O'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo'ldosh PARDAYEV. Navoiy g'azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog'langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na't boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o'rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hataların sebeplerine bir bakış	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVAİ'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul-lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622